XALQ DEPUTATLARI G‘IJDUVON TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 27-dekabr VII-4-016-2-34-K/24 G‘ijduvon tumani

G‘ijduvon tumanining 2025-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Byudjet kodeksining 27, 99-moddalari, “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuniga va xalq deputatlari viloyat Kengashining 2024-yil 26-dekabrdagi VII-4-026-2-0-K/24-sonli qaroriga muvofiq hamda viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2024-yil 27-dekabrdagi 01/06/20-12-38/2223-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari G‘ijduvon tumani Kengashi

QAROR QILDI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni hamda xalq deputatlari viloyat Kengashining 2024-yil 26-dekabrdagi VII-4-026-2-0-K/24-sonli qarori (keyingi o‘rinlarda qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qarorga muvofiq, G‘ijduvon tumani mahalliy byudjetining 2025-yilgi daromadlari 189857,7 mln.so‘m hamda mutanosib ravishda xarajatlari 189857,7 mln.so‘mga tasdiqlanganligi, shuningdek G‘ijduvon tumani mahalliy byudjetida yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori 2214,0 mln.so‘m etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. G‘ijduvon tumani byudjeti daromadlarining 2025-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq hamda tuman mahalliy byudjetidan 2025-yilda hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq, shuningdek G‘ijduvon tumani mahalliy byudjetiga umumdavlat soliqlari va boshqa soliqsiz tushumlardan ajratmalar me’yorlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. G‘ijduvon tumani mahalliy byudjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2025-yil uchun 2823,0 mln.so‘m miqdorida belgilansin.

Bunda, zaxira jamg‘armasi mablag‘larini amaldagi byudjet qonunchiligiga muvofiq, byudjet tizimi byudjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.

5. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari B.Tolibov, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (G‘.Tilloyev), tuman soliq inspeksiyasi (D.Muxtorov) bilan birgalikda 2025-yil mahalliy byudjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

6. Byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar byudjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni birinchi navbatda to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi hamda davriy jamlanma moliyaviy hisobotlarni to‘g‘ri shakllantirilishi va o‘z vaqtida taqdim etilishini ta’minlasin.

7. Mazkur qaror “G‘ijduvon” gazetasi va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

8. Ushbu qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari G‘ijduvon tumani Kengashining mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi hamda tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari B.Tolibov zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi

RAXMATOVA
MUSALLAM
LATIPOVNA

Xalq deputatlari G‘ijduvon tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-016-2-34-K/24 -son qaroriga
1-ilova

G‘ijduvon tumani mahalliy byudjeti daromadlarining 2025-yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming.so‘mda

T/R	Daromad turlari	Kontingent rejasi	Mahalliy reja
1	Foyda solig‘i		
2	Aylanmadan olinadigan soliq	41 403 000,0	41 403 000,0
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	12 392 000,0	50 923 200,0
4	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	4 640 000,0	4 640 000,0
5	Aksiz solig‘i jami		
-	alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)		
-	pivo		
-	benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i		
6	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	980 000,0	7 445 000,0
7	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	19 607 000,0	19 607 000,0
8	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	3 481 000,0	28 746 000,0
9	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	31 219 468,0	31 219 468,0
10	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq		1 705 000,0
11	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	437 000,0	3 658 000,0
12	Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar va davlat korxonalari foydasidan ajratmalar		
13	Davlat boji		
14	Yig‘imlar		
15	Jarimalar		
16	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	511 000,0	511 000,0
JAMI		**114 670 468,0**	**189 857 668,0**

Xalq deputatlari G‘ijduvon tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-016-2-34-K/24 -son qaroriga
2-ilova

2025-yil uchun G‘ijduvon tumani mahalliy byudjetidan hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

ming.so‘mda

№	Hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Cheklangan miqdor
Xarajatlar miqdori, jami		**189 857 668**
1	Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi	*55 797 807*
	shundan:	
	"Mening maktabim"	*3 912 155*
2	Tibbiyot birlashmasi	*0*
	shundan:	
	Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi markazi	*0*
3	Madaniyat bo‘limi	*9 833 227*
4	Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi	*8 643 000*
5	Sport bo‘limi	*9 497 342*
6	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	*2 603 000*
7	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	*5 323 559*
8	Irrigatsiya bo‘limi	*2 178 490*
9	Iqtisodiyot va moliya bo‘limlarini saqlash xarajatlari	*2 561 000*
10	Davlat soliq inspekciyasi	*0*
11	Hokimiyat	*64 933 983*
	shundan:	
	Ijtimoiy ko‘nikma markazlari	*194 000*
	Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga «dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi»	*57 750*
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	*43 297 247*
	"Mahalla byudjeti" jamg‘armasi mablag‘lari	*4 014 000*
	Zahira jamg‘armasi	*2 822 986*
12	Hokimiyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)	*976 636*
	shundan:	
	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	*219 000*
	Axborot-kutubxona markazlari	*757 636*
13	Hokimyat (Obodonlashtirish boshqarmasi)	*27 509 624*
14	Boshqa tashkilotlar	*0*

Xalq deputatlari G‘ijduvon tumani Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-016-2-34-K/24 -son qaroriga
3-ilova

2025-yilda G‘ijduvon tumani mahalliy byudjetiga umumdavlat soliqlari va boshqa majburiy to‘lovlar hamda soliq bo‘lmagan to‘lovlar bo‘yicha belgilanadigan ajratma me’yorlari

foiz hisobida

№	Mahalliy byudjet nomi	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i				Foyda solig‘i				alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)				pivo				benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i				Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq			
		Tuman (shahar) lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga	
		Yirik soliqtoʻlovchilar	Hududiy soliqtoʻlovchilar	Yirik soliqtoʻlovchilar	Hududiy soliqtoʻlovchilar	Yirik soliqtoʻlovchilar	Hududiy soliqtoʻlovchilar	Yirik soliqtoʻlovchilar	Hududiy soliqtoʻlovchilar	Yirik soliqtoʻlovchilar	Hududiy soliqtoʻlovchilar	Yirik soliqtoʻlovchilar	Hududiy soliqtoʻlovchilar	Yirik soliqtoʻlovchilar	Hududiy soliqtoʻlovchilar	Yirik soliqtoʻlovchilar	Hududiy soliqtoʻlovchilar	Yirik soliqtoʻlovchilar	Hududiy soliqtoʻlovchilar	Yirik soliqtoʻlovchilar	Hududiy soliqtoʻlovchilar	Yirik soliqtoʻlovchilar	Hududiy soliqtoʻlovchilar	Yirik soliqtoʻlovchilar	Hududiy soliqtoʻlovchilar

							r																		
1	G‘ijduvon tumani	0%	48%	100%	52%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100 %	100%	0%	0%	100 %	100%	0%	0%	100 %	100%	0%	100%	100 %	0%

№	Mahalliy byudjet nomi	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i		Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq		Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq		Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar		Aylanmadan soliq	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun qat’iy miqdorda belgilangan soliq	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	Davlat boji	Jarimalar	Yig‘imlar
		Tuman (shahar) lar byudjetiga	Viloyatning viloyat byudjetiga	Tuman (shahar)lar byudjetiga	Viloyatning viloyat byudjetiga	Tuman (shahar)lar byudjetiga	Viloyatning viloyat byudjetiga	Tuman (shahar)lar byudjetiga	Viloyatning viloyat byudjetiga	Tuman (shaharlar) lar	Tuman (shaharlar) lar	Tuman (shaharlar) lar	Tuman (shahar)lar byudjetiga	Tuman (shaharlar) lar	Viloyatning viloyat	Viloyatning viloyat	Viloyatning viloyat byudjetiga

		Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	byudjetiga	byudjetiga	byudjetiga		byudjetiga	byudjetiga	byudjetiga	
1	G‘ijduvon tumani	0%	100 %	100 %	0%	100 %	100 %	0%	0%	100%	100%	0%	0%	0%	100%	100 %	0%	100 %	100 %	100 %	100%	100 %	100 %	100 %	100%